

INTERNET VA VIRTUAL O‘YINLAR UMR O‘G‘RISI

**Andijon davlat pedagogika
insituti Tarbiya yo‘nalishi sirtqi ta’lim
1-bosqich 101-guruh talabasi
Toshboyeva Sarvirnoz**

Anotatsiya: Ushbu tezisda Internet va virtul o‘yinlar bolaligimiz vaqtimizni o‘zlashtirib o‘ziga qaram qilib qo‘ygani ko‘p yoshlarni ruhiy psixologik va moddiy taraflama tushkunlik va hattoki o‘liga ham olib keladigan holatlari haqida o‘z fikir va mulohazalarim yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Virtual o‘yinlar, internet, telegram, yutub, pubji, kontr, instagram feybook, X bet.

Xozirgi tez rivojlanib borayotgan zamonda hamma sohalar kabi internet olami ham juda rivojlanib uning turlari va unga bog‘liq atamalar ham ko‘payib bormoqda. O‘zi internetni bizda rivojlanib ommalashib bizni hayotimiz mazmuni va hayotimizni vaqtimizni og‘irlab hayotimizdagi biz uchun juda muhim va quvonchli voqealarni ham virtual o‘yinlaru internet tarmog‘ida o‘tirish bilan o‘tkazib yuboryapti . Bir eslab ko‘ring internet, telefon ,planshet va boshqa zamonaviy gadjetlar bo‘lmagan bollalik paytlarimizni bir eslaylik u damlarni o‘zgacha gashtibor edi ertalab turib yuzini yuvmasdan ham avval telefon ko‘rish bo‘lmasdi uni o‘rniga turib unga ketkazadigan vaqni boshqa o‘zimiz uchun foydali kelajagimiz uchun hich yo‘ sog‘lig‘im uchun yaxshi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanardik misol uchun ukalarim ertalabdan o‘zimizning mahallada toza havoda yugurishardi, mashq qilishardi shu bilan organizmini chiniqtirib salomatligi uchun foydakli toza havodan to‘yib nafas olardi shu uchun ham u paytlarda hozirgi chalik ko‘p kasallanishlar insonni kasallik bilan kurashuvchi immuniteti yaxshi bo‘lard . Shu oddiygina mashg‘ulot ham biz uchun juda foydali. Oldingi bolalarning o‘yinlarini aytmaysizmi juda maroqli bolani epchil, chaqqon, hozir javob va sog‘lom qiladi bu oyinlarimiz; arqondasakrash, o‘n besh o‘yini , to‘ptosh , quvlashmashoq , berkinmashoq biz bu o‘yinlarni o‘ynab katta bo‘ldik . Lekin xozirchi ko‘chaga chiqingga birorta berkinmashoq o‘ynagan bolani ko‘rasizmi yo‘q hammani qo‘lida telefon telegram, yutub,instagram , feysbok va xar –hil turdagi virtual o‘yinlar ; masalan Pubji, X bet , kontr va hakazolar. Biz shunchalar internet virnual o‘yinlarga berildikki mukkamizdan kettikki va hatto o‘zimiz yaratgan virtuellikni quliga aylanib qoldik vaholanki u bizni emas biz uni boshqarishimiz kerak chunki biz o‘ngli mavjudodlar yetuk bilimdon insonlarmiz biz yaratdik shu narsalarni o‘zimiz uni quli bo‘lib qolishimiz juda ham ayanchli. Biz uzog‘gamas o‘zimizga bir nazar solaylik qachon oxirgi marta farzandingiz bilan biror o‘yin o‘ynadngiz yoki unga ertak o‘qib berdingiz yo u bilan ertak sahnalashtirib o‘ynadingiz eslab ko‘ringa . Bizbu o‘yinlarni o‘ynashga vaqtimiz yo‘q biz telegram , yutub , instagramda mazza qilib kulguli yoki qiziqarli video ko‘rishimiz kerak . Shu uchun ham farzandlarimiz ham telefonga mukkasidan ketib uni quli bo‘lib o‘rgatilgan zo‘mbilarga aylanib qolyapti . O‘zimiz shunga majbur qilyapmiz bola qachon qarasa ota onasini qo‘lida telefon ona deb borsa dadangga bor dada esa qara bolaga deb tursa bola ham bu telefon juda qiziqarli zo‘r narsa yomon bo‘lsa ota onam bunchalar qiziqmasdi deydid shu uchun ham aytadi ota ona bola uchun ideal bola ularga qarab andoza oladi. Bolangizni so‘kib urishishdan avval aybni o‘zingizdan qidiring bu nima uchun bunday bo‘ldi qayerda hato qildim tarbiyani qayeri hato deb o‘ylab hatoni tog‘irlashga harakat qilib koring. Albatta ijobiy natija olasiz masalan bir hafta telefonni ishlatmay qo‘lingizga kitob olib farzandingiz oldida kitob o‘qib o‘tiringchi nima bo‘lishini ko‘rasiz ikkinchi kundayoq farzandiz ham o‘sha kitobni o‘qishni

hohiyotganini nima haqida ekanini so‘ray boshlaydi va yonizga o‘tirib o‘qib bersez eshitib yana o‘qib berishimizni so‘raydi. Ko‘rinib turibdiki hamma narsa biz ota onalar qo‘lida yoshligidan u bilan shug‘ullanib tarbiyasiga ahamiyat bermasak hali aytgan zo‘mbilarni yaratib qo‘yamiz. O‘sha tarbiyamiz oqsab e‘tiborsiz bo‘lgan bolalarimiz tarbiyasi ahloqi va hayotini bir o‘ylab atrofga bir qarab fikirlab ko‘raylikchi o‘sha inernetni quliga aylangan ota onani farzandi ham shu yo‘lda bo‘ladida keyin bu bolani hayotid nima kechadi uni kelajagi nima bo‘ladi bir o‘ylang bu bola virtual o‘yinlarga mukkasidan ketib unga qaram bo‘lib qoladi u siz hayotini tasavvur qilaolmaydigan tursa ham yursa ham o‘tursa ham faqat virtual o‘yinda yurgandek bo‘lib qoladi. Unga boshqa narsani umuman qizig‘i yo‘q o‘qish bilim olish , do‘st ortirish , ota onaga mehr degan hissiyotlar o‘rnini faqat o‘sha o‘yindagi vahshi obrazlar va undagi g‘alabaga bo‘lgan qiziqish egallaydi.

Hozirda bu o‘yinlar tufayli nechta oiladagi ota onalar va farzdlari ham ruhan, ma`nan jismonan ham moddiy taraflama aziyyat chekadi .

Bu o‘yinlarni aksaryati pul mablag‘iga o‘ynaladi bolani qiziqtirish uchun ko‘p miqdordagi pulni taklif qilib u bu summani eshitib yoki ko‘rib uni rad eta olmas darajadagi ko‘p summa unda buncha pul nima uchun osongina berildi deb o‘yalab o‘tirgisi yo‘q ha mayli bir marta o‘ynab ko‘ray hich nima yoqotmayman yutib qaytib o‘ynamayman deb bu o‘yin domiga tushib qoladi . Birinchi o‘ynaganida katta yutuq oladi, yana ham ko‘proq yutishni hohlab qoladi, shu tariqa o‘zi ham bilmagan holda qancha yutib qancha yutqazganini o‘sha pullarini qaytarib yutib olish uchun o‘ynaydi keyin shu bilan nechta nechta insonlarni bilaman hattoki yashab turgan uyini sotib berishga ham to‘g‘ri kelgan joylarini. Va hattoki o‘lim bilan tugaganlari ham bor. Bu o‘yinda juda katta miqdordagi pulni yutqazib qo‘yib ota onasidan qo‘rqib o‘zini osib o‘ldirishga ham olib kelganini guvohi bo‘ldik. Bu virtual o‘yinlarning oxiri yaxshilik bilan tugamasligi aniq diniy tarafdin qaraydigan bo‘lsak ham bu pullar bu o‘yinlar harom hisoblanadi demak bu ishni qilgan inson ham yaxshi ish qilmagan. Biz bu virtual o‘yinlarni tag tomiri bilan sug‘urib tashlolumimiz inernetni ham ko‘rma diyolmimiz hamma narsani me`yyori ozi yaxshi va bu internetni ham yaxshi taraflari ham bor kim qanday foydalanishiga bog‘liq albatta yaxshi niyyatda foydalansa yaxshilik keladi yomonlik albatta yomonlikka olib keladi . Hulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki har qanday narsa o‘zimizni qo‘limizda inson yaxshilikni yani yaxshi hayoni ham yomonini ham o‘zi yaratadi hammasi o‘zimizni qo‘limizda . Avvalo farzand tarbiyasiga juda katta e‘tibor berishimiz kerak ular nihol biz uni qanday parvarish qilsak shunday o‘sadi qaysi tarafga egsak shu tarafga qarab o‘sadi shunday ekan farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya beraylik ularni bilimli, aqilli, odobli mehnatkash va vatanini sevuchi mard jasur qilib tarbiyalash vataniga munosib farzand bo‘lishi bizni qo‘limizda .

Aziz ota onalar bir kunda hich bo‘lmasa bir ikki soatini farzandimizga ajrataylik keyin afsus qilmaslik uchun .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktab hayoti jurnali 2003
2. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya ”. T.: “Fan va texnologiyalar ” mazkazining bosmaxonasi : 2009
3. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To‘ychiyeva S.M. “Yosh va pedagogik psixologiya” T.TDPU, 2009.
- 4.Www ziyouz. com. Kutubxonasi.
- 5.cyberlenika. ru